
ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

10(1)
2026



ISSN 2181-6833
9 772181 683301

ISSN 2181-6833

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

10-son (2026-yil, oktabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2026

PEDAGOGIK MAHORAT
Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2026, № 10

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.
Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich– pedagogika fanlari doktori, professor
Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)
Satibekova Mayramkul Abdikulovna, Jusup Balasagin nomidagi Qirg‘iziston milliy universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc)
Azizov Abdulatif Abduxalimovich, Bobojon Gafurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori (DSc), akademik
Batchuluun Yembuu, Mongoliya davlat ta’lim universiteti professori, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)
Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)
Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)
Zotova Firuza Raxmatullovna, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)
Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor
Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)
Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)
To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Abdullayev Mehriddin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nigora Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Adizova Nodira Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Axmadova Umidaxon Shavkat qizi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasulova Zilola Durdimurotovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО
Научно-теоретический и методический журнал
№ 10, 2026

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «**Педагогика»** и «**Психология»**.

Журнал основан в 2001 году.
Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

Учредитель: Бухарский государственный университет

Адрес редакции: 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Главный редактор: Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор
Ответственный редактор: Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук, доцент

Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор
Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор
Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор
Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор
Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)
Сатыбекова Майрамкул Абдикуловна, доктор педагогических наук (DSc) профессор (Кыргызстан)
Азизов Абдулатиф Абдухалимович, доктор педагогических наук (DSc), профессор, академик (Таджикистан)
Батчулуун Ямбуу, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор (Монголия)
Андриенко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)
Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)
Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)
Зотова Фируза Рахматулловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры , спорта и туризма, Россия)
Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор
Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор
Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)
Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор
Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор
Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор
Дурдиев Дурдимурад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор
Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор
Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор
Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор
Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор
Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор
Курбонова Гулноз Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор
Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор
Дилова Наргиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент
Абдуллаев Мехриддин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нигора Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Адизова Нодира Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор
Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор
Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент
Ахмадова Умидахон Шавкат кизи, доктор филологических наук (DSc), доцент
Расулова Зилола Дурдимуротовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент
Халикова Умида Мировна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент

PEDAGOGICAL SKILLS
The scientific-theoretical and methodical journal
№ 10, 2026

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «**Pedagogy**» and «**Psychology**».

The journal was founded in 2001.
The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

Founder: Bukhara State University

Publish house: 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.
E-mail: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

EDITORIAL BOARD:

Chief Editor: Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.
Editor: Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Doc. Nigora Z. Sayfullaeva

Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov
Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mayramkul A. Satibekova (Kyrgyzstan)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Azizov Abdulatif Abdukhalimovich, Academician (Tajikistan)
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Batchuluun Yumbuu (Mongolia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)
Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullovna (Russia)
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof.M.Mahmudova
Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)
Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev
Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R.Amanov
Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva
Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev
Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov
Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva
Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova
Doctor of Philology, Prof. Qahramon R.Tuxsanov
Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova
PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G.Jumaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nigora B. Adizova
Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nodira B. Adizova
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov
PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Firuz N. Nurulloev
PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade
Doctor of Philology (DSc), Doc. Umidakhon Sh. Akhmadova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Zilola D. Rasulova
PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva
PhD in Pedagogical Sciences, Doc.Umida M. Khalikova

MUNDARIJA

	Familiya I.Sh.	Mavzu	Bet
DOLZARB MAVZU			
	BOBOYEVA O‘g‘iloy Tolib qizi	Pedagogik savodxonlikni rivojlantirish asosida huquqbuzarlikning nazariy tahlili	8
PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA			
	КОМИЛОВА Зироатхон Муроджон қизи	Финляндия таълим тизимида болаларга дўстона муносабат: тамойиллар, амалиёт ва Ўзбекистон учун сабоқлар	13
	ABDUG‘OPIROVA Feruza Akramjon qizi	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy shakllanishida pedagogik deontologiya va kasbiy etik kompetensiyalarning o‘zaro uyg‘unligi	19
	QOBILOVA Nasiba Ismatjon qizi	Psixologik himoya mexanizmlarining psixoanalitik konsepsiyadan zamonaviy empirik yondashuvlargacha rivojlanishi	24
	BANNAYEV Maxamadin Sotvoldiyevich	O‘spirinlik davridagi talabalarda depressiv holatlar namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari	29
	FAYZIYEVA Nodira Sobirovna	O‘smirlarda internetdan ortiqcha foydalanishning psixologik oqibatlari	33
	QO‘ZIYEV Sherali Nasrullayevich, HAMROYEV Sobir Husenovich, DADAXONOVA Muxlisa Bahrom qizi	Pedagogik amaliyot jarayonida nazariy bilimlarni amaliy faoliyatga integratsiyalash metodikasi	39
	MURODOVA Dilnoza Ahmad qizi	Yoshlarda raqamli yolg‘izlik fenomenining ijtimoiy-psixologik mazmuni va zamonaviy talqinlari	44
	O‘ROLOV Miraziz Mirsodiq o‘g‘li	Sportchilarning irodaviy sifatlarini shakllantirishda psixologik yondashuv bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalar tahlili	49
	QODIROVA Malikaxon Kaxramonovna	Talaba-yoshlarning ijtimoiy-psixologik adaptatsiyasi va uning psixologik mazmuni	53
	SABIROVA Muxarramoy Nurbek qizi	Kooperativ yondashuv asosida bo‘lajak pedagoglarning kasbiy mahoratini autodidaktik rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	58

	TEMIROVA Shoxsanam Komilovna	CLIL yondashuvi asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy- subyektiv pozitsiyasini rivojlantirish	64
	TUXTAYEVA Nilufar Achilovna	Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini takomillashtirishning tarkibiy-funksional asoslari	69
	REJAMETOVA Irada Ikramshikovna	Yosh ofitserlar jamoasida xizmat rezistentligi ijtimoiy-psixologik kategoriya sifatida	75
	МИРЗАКБАРОВА Севда Вахиддиновна	Формирование интегрированных компетенций студентов: психолого-педагогические и лингводидактические основы	80
	NAHALBOYEVA Nigora Turdi qizi	O‘smirlarda tajovuzkor xulq bilan bog‘liq psixologik zaiflikni differensial psixoprofilaktika qilish modeli	86
	TOSHPULATOV Akmal Xolmirzayevich	10-sinf o‘quvchilari estetik tarbiyalanganligi komponentlari va topshiriqlarini tabaqalashtirish metodikasi (Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani misolida)	91
	NURIDDINOV Javlon Zafarovich, SADULLAYEVA Iroda Po‘lat qizi	Talabalarning kasbiy tayyorgarligidagi mavjud muammolar: steam ta’limini joriy etishdagi pedagogik to‘siqlar	95
	DJUMANAZAROV Yokubjon Turg‘unbayevich	Mahalla institutlari orqali aholiga psixologik xizmat ko‘rsatishni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik asoslari	101
	OZODOVA Madina Hamza qizi	Funksional savodxonlikni rivojlantirishning neyropedagogik modeli	106
	НАХАЛБОЕВА Нигора Турди кизи	Социально-психологические факторы, влияющие на возникновение и проявление агрессивного поведения в подростковом возрасте	113
	TASHPULATOVA Charos Anvarovna	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligida ochiq ta’lim muhitlaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlari	119
	ABDURAHMONOVA Shaxodat Faxridin qizi	Ijtimoiy tarmoq kontenti asosida talabalarda ilmiy tafakkur va axborotni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi	124
	ELMANOV Abbos Begmat o‘g‘li	Bo‘lajak muhandis-mexaniklarning metakognitiv kompetentligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning diagnostik va didaktik asoslari	129

	NURULLOYEV Laziz Latipovich	Umumta’lim maktablari yuqori sinf o‘quvchilarini harbiy xizmatga tayyorlashning ilmiy-pedagogik metodikasi samaradorligi	135
MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM			
	HIMOYEVA Sarvarbegim Jamilovna	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 5k kompetensiyalarini adaptiv ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantirish nazariyasi	140
	BOYMURODOVA Nodirabegim Bahodir qizi	Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning hayotiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish	146
	TOG‘AYEVA Umida Shavqi qizi	Boshlang‘ich ta’limda neyrolingvistik diagnostika asosida o‘quv topshiriqlarini individuallashtirish	152
	OCHILOVA Sabina Pirnazar qizi	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	158
	HIMOYEVA Sarvarbegim Jamilovna	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining 5k kompetensiyalarini adaptiv ta’lim texnologiyalari asosida rivojlantirishning nazariyasi va amaliyoti	163

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA NEYROLINGVISTIK DIAGNOSTIKA ASOSIDA O‘QUV TOPSHIRIQLARINI INDIVIDUALLASHTIRISH

Tog‘ayeva Umida Shavqi qizi,
Osiyo xalqaro universiteti Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish jarayonini individuallashtirishning neyrolingvistik diagnostikaga asoslangan ilmiy-metodik modeli yoritilgan. Neyrolingvistik diagnostika tibbiy tashxis sifatida emas, balki o‘quvchining til materialini qabul qilish, qayta ishlash, eslab qolish va nutqda qo‘llash jarayonlaridagi individual xususiyatlarini pedagogik maqsadda aniqlash tizimi sifatida talqin qilinadi. Diagnostik ko‘rsatkichlar sifatida fonologik qayta ishlash, verbal ishchi xotira, diqqat barqarorligi, leksik birliklarni chaqirish tezligi, o‘qish ravonligi va tushunish, grammatik-operatsion faoliyat hamda yozma nutqdagi xatolar dinamikasi ajratib ko‘rsatilgan. Ushbu yondashuv o‘quvchini qat’iy tipologiyaga ajratishdan voz kechib, uning o‘zgaruvchan kognitiv-nutqiy ehtiyojlariga tayangan holda differensial va individual ta’limni tashkil etishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *neyrolingvistik diagnostika, boshlang‘ich ta’lim, ona tili, individual ta’lim, o‘quv topshirig‘i, fonologik qayta ishlash, verbal ishchi xotira, leksik kirish, o‘qib tushunish, differensial yondashuv.*

ИНДИВИДУАЛИЗАЦИЯ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ НЕЙРОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ

В данной статье освещается научно-методическая модель индивидуализации процесса обучения родному языку в начальном образовании, основанная на нейролингвистической диагностике. Нейролингвистическая диагностика рассматривается не как медицинская диагностика, а как система педагогического выявления индивидуальных особенностей учащегося в процессах восприятия, переработки, запоминания языкового материала и его использования в речи. В качестве диагностических показателей выделены фонологическая обработка, вербальная рабочая память, устойчивость внимания, скорость актуализации лексических единиц, беглость и понимание чтения, грамматико-операционная деятельность, а также динамика ошибок в письменной речи. Данный подход позволяет отказаться от жёсткой типологизации учащихся и способствует организации дифференцированного и индивидуализированного обучения на основе их изменяющихся когнитивно-речевых потребностей.

Ключевые слова: *нейролингвистическая диагностика, начальное образование, родной язык, индивидуализированное обучение, учебное задание, фонологическая обработка, вербальная рабочая память, лексический доступ, понимание прочитанного, дифференцированный подход.*

INDIVIDUALIZING LEARNING TASKS IN PRIMARY EDUCATION ON THE BASIS OF NEUROLINGUISTIC DIAGNOSTICS

This article presents a scientific and methodological model for individualizing native language instruction in primary education based on neurolinguistic diagnostics. Neurolinguistic diagnostics is interpreted not as a form of medical diagnosis, but as a pedagogical system for identifying learners’ individual characteristics in the processes of perceiving, processing, retaining, and using language material in speech. The diagnostic indicators include phonological processing, verbal working memory, sustained attention, the speed of lexical retrieval, reading fluency and comprehension, grammatical-operational activity, and the dynamics of errors in written speech. This approach avoids rigid typological classification of learners and facilitates the organization of differentiated and individualized instruction based on their changing cognitive and speech-related needs.

Keywords: *neurolinguistic diagnostics, primary education, native language, individualized instruction, learning task, phonological processing, verbal working memory, lexical retrieval, reading comprehension, differentiated approach.*

Kirish. Boshlang‘ich ta’limda ona tili o‘qitish faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirish bilan cheklanmaydi; u o‘quvchining tinglab tushunishi, o‘qishi, so‘z boyligi, og‘zaki va yozma nutqi, matn bilan ishlashi hamda fikrni til vositalari orqali aniq ifodalashini kompleks rivojlantirishga qaratiladi. Shu sababli bir xil mazmun va bir xil murakkablikdagi topshiriqni barcha o‘quvchilarga teng shaklda taklif etish amaliy

jihatdan qulay bo‘lsa-da, individual farqlarni to‘liq hisobga olmaydi. Bolalarning tilni o‘zlashtirish sur’ati, fonologik sezgirligi, verbal xotira hajmi, diqqatni boshqarish imkoniyati, lug‘at zaxirasi, o‘qish tezligi va mazmunni qayta ishlash strategiyalari sezilarli darajada farqlanishi mumkin [1; 2].

Til rivojlanishidagi individual tafovutlar tasodifiy holat emas. Zamonaviy psixolingvistik tadqiqotlar bolalarning nutqni idrok etish, lug‘at va grammatikani egallash jarayonlarida barqaror individual farqlar mavjudligini, quyi darajadagi eshituv va fonologik qayta ishlashdagi farqlar keyinchalik yuqori darajadagi til ko‘nikmalariga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini qayd etadi [3]. Shu nuqtai nazardan, ona tili darsidagi topshiriqlarni individuallashtirish uchun faqat o‘zlashtirish natijasini baholash emas, balki natijaga olib kelayotgan kognitiv-nutqiy jarayonlarni aniqlash ham muhimdir.

Metodlar. Maqolada nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik modellashtirish, diagnostik topshiriqlarni loyihalash, kuzatish va o‘quv mahsullarini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy-metodik asos sifatida neyropsixologiya va psixolingvistikaning til faoliyati haqidagi qarashlari, individual farqlar nazariyasi, differensial ta’lim hamda savodxonlikni individuallashtirish bo‘yicha tadqiqot natijalari olindi [2; 4; 5].

Neyrolingvistik diagnostikada bir martalik “yorliq” qo‘yishdan ko‘ra, o‘quvchi faoliyatining dinamik ko‘rsatkichlarini qayd etish muhim. Chunki diqqat, ishchi xotira, tezkor leksik kirish yoki matnni tushunish ko‘rsatkichlari topshiriq turi, mazmunning tanishligi, emotsional holat va pedagogik yordamga qarab o‘zgarishi mumkin. Shu bois diagnostika boshlang‘ich, joriy va yakuniy monitoring shakllarida olib borilishi lozim.

1-jadval.

Neyrolingvistik diagnostikaning pedagogik ko‘rsatkichlari

№	Diagnostik ko‘rsatkich	Aniqlash usuli	Topshiriqni individuallashtirish yo‘nalishi
1	Fonologik qayta ishlash	Tovushni ajratish, bo‘g‘inlash, fonemani almashtirish topshiriqlari	Tovush-harf tayanchi, bo‘g‘inli model, qisqa fonologik mashqlar
2	Verbal ishchi xotira	So‘zlar/gaplarni eslab qaytarish, ketma-ket ko‘rsatmalar	Matn va yo‘riqnoma hajmini qisqartirish, bosqichli topshiriq
3	Diqqat barqarorligi	Vaqt oralig‘ida xatolar va bajarish sur’atini kuzatish	Qisqa bloklar, aniq markerlar, tanaffus va qayta yo‘naltirish
4	Leksik kirish tezligi	Rasm nomlash, ma’no guruhiga so‘z topish	Semantik tayanch, kalit so‘zlar, assotsiativ zanjir
5	O‘qish ravonligi va tushunish	Ovozli/jim o‘qish, mazmuniy savollar, qayta hikoyalash	Matn hajmi, savol darajasi va tayanchlarning differensial berilishi
6	Grammatik-operatsion faoliyat	So‘z shaklini o‘zgartirish, gap tuzish, morfologik tahlil	Namuna, algoritm, tanlash imkoniyati va murakkablik bosqichi
7	Yozma nutq xatolari dinamikasi	Diktant, ko‘chirib yozish, mustaqil matn tahlili	Xato turiga mos mikro-topshiriqlar va qayta aloqa

Jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlar o‘quvchining “qobiliyat darajasi”ni umumiy baholash uchun emas, balki ayni paytda qaysi kognitiv-nutqiy operatsiya ko‘proq pedagogik yordamga ehtiyoj sezayotganini aniqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, matnni mazmunan yaxshi tushunadigan, biroq verbal ishchi xotira hajmi cheklangan o‘quvchi uzoq yo‘riqnomalarda topshiriq shartini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Bunday vaziyatda muammo mazmunni anglashda emas, topshiriqni tashkil etish shaklidadir. Demak, individuallashtirish mazmunni soddalashtirishdan ko‘ra topshiriq arxitekturasini moslashtirishni talab etadi.

Individual o‘quv profilini tuzishda kamida uch turdagi ma’lumotni birlashtirish maqsadga muvofiq: birinchisi – diagnostik mikro-topshiriqlardagi natija; ikkinchisi – kundalik dars jarayonidagi kuzatish; uchinchisi – o‘quvchining real mahsuli, ya’ni yozma ish, og‘zaki javob, matn tahlili yoki o‘qish natijasi. Shu uch manbaning uyg‘unligi xatoni tasodifiy holat sifatida emas, takrorlanuvchi o‘quv ehtiyoji sifatida aniqlash imkonini beradi.

Neyrolingvistik diagnostika asosida o‘quv topshirig‘ini individuallashtirish quyidagi besh bosqichli algoritmda tashkil etilishi mumkin:

1. Diagnostika bosqichi – o‘quvchining fonologik, leksik, grammatik, mnemonik, diqqat va matnni tushunish ko‘rsatkichlari aniqlanadi.

2. Individual profil bosqichi – kuchli tomonlar, qiyinchiliklar va zarur pedagogik tayanchlar qisqa xarita ko‘rinishida qayd etiladi.

3. Moslashtirilgan topshiriq bosqichi – maqsad bir xil saqlanadi, biroq topshiriqning hajmi, murakkabligi, temp, ko‘rsatma shakli, tayanch va javob formati individual ehtiyojga moslashtiriladi.

4. Monitoring bosqichi – bajarish tezligi, xato turi, mustaqillik darajasi va natija dinamikasi kuzatiladi.

5. Qayta moslashtirish bosqichi – o‘quvchi rivojlanishiga qarab yordam kamaytiriladi, murakkablik oshiriladi yoki boshqa tayanch turi tanlanadi.

Natijalar. Nazariy tahlil va metodik modellashtirish natijasida o‘quv topshiriqlarini individuallashtirish uchun beshta asosiy parametr ajratildi: murakkablik darajasi, axborot hajmi, bajarish sur’ati, taqdim etish formati va pedagogik tayanch darajasi. Ushbu parametrlar o‘quv maqsadini o‘zgartirmasdan, topshiriqning bajarilish yo‘lini moslashtirish imkonini beradi. Bu yondashuv differensial ta’limning mazmuniy birligini saqlagan holda individual ehtiyojlarga javob berishini ta’minlaydi.

2-jadval.

Diagnostik profilga mos o‘quv topshiriqlarini individuallashtirish namunalari

Diagnostik holat	Umumiy o‘quv maqsadi	Individual topshiriq varianti	Pedagogik tayanch
Fonologik tahlilda qiyinchilik	So‘z tarkibidagi tovushlarni farqlash	3–4 so‘zdan tovush o‘rnini aniqlash; rangli fonema kataklaridan foydalanish	Namuna + birgalikda bajarilgan birinchi topshiriq
Verbal ishchi xotira sustroq	Gap tuzilishini o‘zlashtirish	Uzun ko‘rsatmani 2–3 qisqa qadamga ajratish; har qadamdan so‘ng bajarish	Bosqich kartasi
Leksik kirish sekin	Mavzu bo‘yicha lug‘atni faollashtirish	Rasm → kalit so‘z → sinonim/izoh → gap zanjiri	Semantik xarita
O‘qish ravon, tushunish zaif	Matndan asosiy fikrni aniqlash	Har abzatsdan keyin bitta mazmuniy savol va sarlavha tanlash	Savol markerlari
Grammatik qoidani biladi, qo‘llashda xato qiladi	Qoidani nutqiy vaziyatda qo‘llash	Tayyor gapni tahlil qilishdan mustaqil gap tuzishga bosqichli o‘tish	Algoritm + o‘zini tekshirish mezoni
Yozmada bir xil xato takrorlanadi	Imlo ko‘nikmasini barqarorlashtirish	Xato turiga oid 5–7 ta maqsadli mikro-topshiriq, so‘ng erkin yozuv	Shaxsiy xato kartasi

Jadvaldagi misollar shuni ko‘rsatadiki, individuallashtirishning asosiy obyekti o‘quv maqsadi emas, unga olib boruvchi pedagogik yo‘ldir. Masalan, barcha o‘quvchilar uchun “matndan asosiy fikrni aniqlash” maqsadi saqlanadi, lekin ayrim o‘quvchilarga abzatslar bo‘yicha bosqichli savollar, boshqalarga esa tayanchsiz mustaqil xulosa chiqarish topshirig‘i berilishi mumkin. Natijada sinfda umumiy ta’lim maqsadi buzilmaydi, biroq kognitiv yuklama individual boshqariladi.

Individualizatsiya samaradorligini ta’minlashda qayta aloqa alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotlar o‘quvchining mavjud til va savodxonlik ko‘rsatkichlariga moslashtirilgan individual ta’lim standart o‘qitishga nisbatan o‘qib tushunish natijalarini yaxshilashi mumkinligini ko‘rsatadi [4; 5]. Biroq bunday yondashuv o‘qituvchidan doimiy diagnostik qaror qabul qilishni, topshiriqni o‘quvchi rivojiga qarab qayta sozlashni va kichik guruh hamda individual ish shakllarini oqilona uyg‘unlashtirishni talab etadi.

Mazkur yondashuv ona tili darslarida o‘quv topshiriqlarining didaktik sifatiga ham yangi talablar qo‘yadi. Birinchidan, topshiriq aniq kognitiv-nutqiy operatsiyani faollashtirishi kerak: eshitib ajratish, ma’noni tanlash, so‘zlarni bog‘lash, grammatik shaklni o‘zgartirish, mazmunni qayta tuzish yoki matndan xulosa chiqarish. Ikkinchidan, topshiriq natijasi faqat “to‘g‘ri–noto‘g‘ri” mezoni bilan emas, bajarish strategiyasi bilan ham baholanishi lozim. Uchinchidan, o‘quvchi uchun qo‘llanadigan tayanchlar vaqtinchalik bo‘lishi va rivojlanish bilan bosqichma-bosqich kamaytirilishi kerak. To‘rtinchidan, o‘qituvchi bir xil mavzu doirasida kamida ikki-uch variantdagi topshiriqni oldindan tayyorlashi maqsadga muvofiq. Bunday tizim differensial ta’limni tasodifiy usuldan metodik jihatdan boshqariladigan jarayonga aylantiradi hamda boshlang‘ich sinf ona tili ta’limida har bir o‘quvchining kognitiv-nutqiy imkoniyatlarini rivojlantirish uchun zarur pedagogik sharoit yaratadi.

Quyidagi topshiriqlar neyrolingvistik diagnostika natijasini bevosita ta’limiy vazifaga aylantirish tamoyili asosida ishlab chiqildi. Ular darslikdagi mavzuni almashtirmaydi, balki bir xil o‘quv maqsadiga turli kognitiv-nutqiy yo‘llar orqali erishishni ko‘rsatadi.

1-topshiriq. “Tovushni eshit – ajrat – so‘zda qo‘lla”. Diagnostik asos: fonologik farqlash va verbal ishchi xotirada qiyinchilik kuzatilgan o‘quvchi. O‘qituvchi talaffuzi yaqin bo‘lgan tovushlar qatnashgan 6–8 ta so‘zni navbat bilan aytadi (masalan, bola–pola, gul–kul kabi juftliklardan metodik jihatdan moslari tanlanadi). O‘quvchi avval maqsad tovushni eshitganda belgini ko‘rsatadi, keyin shu tovush qatnashgan so‘zni rasm bilan moslashtiradi va yakunda tanlangan so‘z ishtirokida bitta gap tuzadi. Tayanchli variantda rasm va birinchi bo‘g‘in beriladi; qisman tayanchli variantda faqat rasm beriladi; mustaqil variantda o‘quvchi o‘zi yangi so‘z topadi. Topshiriq natijasida eshitib farqlash, qisqa muddatli saqlash va fonologik birlikni nutqda qo‘llash bir zanjirda faollashadi.

2-topshiriq. “Ma’no xaritasi: so‘zdan semantik tarmoqqa”. Diagnostik asos: leksik kirish sekinligi yoki faol lug‘atning yetarlicha tez faollashmasligi. Markazga mavzuga oid bitta tayanch so‘z yoziladi, masalan, “bahor”. O‘quvchi undan to‘rtta yo‘nalish bo‘yicha birliklar chiqaradi: “nima ko‘raman?”, “nima eshitaman?”, “qanday harakat bo‘ladi?”, “qanday his qilaman?”. So‘ng topilgan birliklardan kamida uch tasini birlashtirib 2–3 gap tuzadi. Agar o‘quvchi so‘z topishda qiynalsa, o‘qituvchi rasmlar yoki tanlash uchun so‘zlar bankini beradi; leksik kirishi tez o‘quvchiga esa sinonim, sifatlash yoki ko‘chma ma’noli birikma qo‘shish topshiriladi. Mazkur mashq lug‘at birliklarini alohida yodlashdan semantik aloqalar tarmog‘ida faollashtirishga o‘tkazadi.

3-topshiriq. “Matnni uch tayanch bilan tushun”. Diagnostik asos: o‘qib tushunish, mazmuniy ketma-ketlikni saqlash yoki asosiy fikrni ajratishda qiyinchilik. O‘quvchiga 5–6 gapli kichik matn beriladi. Birinchi bosqichda u “kim?”, “nima sodir bo‘ldi?”, “natija nima?” savollariga javob topib uchta kalit birlikni belgilaydi. Ikkinchi bosqichda shu birliklar asosida voqealar ketma-ketligini uch qismga joylaydi. Uchinchi bosqichda matnni yopib, uch tayanchdan foydalanib mazmunni qayta hikoya qiladi va bitta xulosa gap tuzadi. Tayanchli variantda kalit so‘zlar oldindan ajratib beriladi, mustaqil variantda esa o‘quvchi ularni o‘zi tanlaydi. Bu topshiriq diqqat, verbal ishchi xotira, matn modeli yaratish va og‘zaki qayta ifodalashni birgalikda rivojlantiradi.

Mazkur uch namuna bir xil metodik qoidani tasdiqlaydi: diagnostika natijasi o‘quvchini qat’iy “tip”ga ajratish uchun emas, topshiriqning vaqtinchalik tayanchini, hajmini va bajarish usulini moslashtirish uchun ishlatiladi. O‘quvchi barqaror muvaffaqiyat ko‘rsata boshlaganda rasm, kalit so‘z, namunaviy jumla yoki bosqichli ko‘rsatma asta-sekin kamaytiriladi. Shu tariqa individuallashtirishning yakuniy maqsadi o‘quvchini doimiy yordamga bog‘lash emas, balki mustaqil nutqiy faoliyatga olib chiqishdan iborat.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf ona tili darslarida har bir o‘quvchining o‘ziga xos o‘rganish xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Neyrolingvistik diagnostika o‘qituvchiga o‘quvchining til materialini qanday qabul qilishi, qaysi topshiriqlarda qiynalishi va qanday yordamga ehtiyoj sezishini aniqlash imkonini beradi.

Shu asosda o‘quv topshiriqlarini o‘quvchining imkoniyatiga mos ravishda murakkabligi, hajmi, bajarish sur’ati va tayanch vositalari bo‘yicha moslashtirish mumkin. Bu esa barcha o‘quvchilarga bir xil talab qo‘yishdan ko‘ra, ularning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda samaraliroq ta’lim tashkil etishga yordam beradi.

Natijada o‘quvchilarning ona tili faniga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil ishlash ko‘nikmasi va nutqiy faoliyati rivojlanadi. Neyrolingvistik diagnostika asosida individuallashtirilgan topshiriqlardan foydalanish boshlang‘ich ona tili ta’limining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Noshir, 2009. – 352 b.

2. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 262 b.

3. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2024. – 204 b.

4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Ona tili fanidan Milliy o‘quv dasturi. – Toshkent, 2021. – 84 b.

5. Luriya A.R. Yazik i soznaniye / Pod red. E.D. Homskoy. – Moskva: Izd-vo MGU, 1979. – 320 s.

6. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech. – Moskva: Labirint, 2005. – 352 s.

7. Connor C.M., Morrison F.J., Fishman B.J., Schatschneider C., Underwood P. Algorithm-Guided Individualized Reading Instruction // Science. – 2007. – Vol. 315, No. 5811. – P. 464–465.

8. Wong P.C.M., Morgan-Short K., Ettlinger M., Zheng J. Personalized learning: From neurogenetics of behaviors to designing optimal language training // Neuropsychologia. – 2017. – Vol. 98. – P. 192–200.